



BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIK METODIKASI

Hojikarimova Gulasal Tadjialiyevna

Farg'onha davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15015950>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Mart 2025 yil
Ma'qullandi: 06-Mart 2025 yil
Nashr qilindi: 13-Mart 2025 yil

KEY WORDS

Bugungi kunda o'qituvchilarining
texnologik tayyorgarlik metodikasiga
pedagogik kiritish zarur
tayyorgarlik innovatsion
texnologiyalarni

ABSTRACT

Ushbu maqolada bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik metodikasida - zamonaviy ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish, uning pedagogik va texnologik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayonni anglatadi. Bunday tayyorgarlik o'qituvchining nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham mustahkamlashga yordam berishi yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da ta'limning uzuksizligini ta'minlash, pedagogik yo'nalishlarda ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu islohotlar oliy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirish, mutaxassislarning intellektual va kasbiy salohiyatini yuksaltirish, shuningdek, ularning mehnat bozorida munosib o'rinnegallashini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, hozirgi vaqtida dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm fan, yuqori texnologiyalar va innovatsion yutuqlarni keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz. Shu tariqa, innovatsion yondashuvlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida oliy ta'limda yuqori sifatli, raqobatbardosh kadrlar kasbiy tayyorgarligi bugungi muhim masala hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashda texnologiyalar va metodikalarining o'rni texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, o'qitish metodikalari va pedagogik yondashuvlarni o'zgartirish talab etiladi. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat pedagogik, balki informatsion-kommunikatsion texnologiyalar (IKT) sohasidagi bilimlarni ham mukammal bilishi lozim. Shu bois, ta'lim jarayonida foydalilanildigan metodlar va vositalar bo'lajak o'qituvchining malakasini oshirishda katta rol o'yndaydi.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik metodlardan tashqari, interaktiv, muammoli, va loyiha asosida ta'lim berish metodlari ham keng qo'llaniladi. Bunday metodlar o'qituvchining ijodkorlik va analistik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni masofaviy ta'lim va o'z-o'zini o'rgatish metodikalariga ham tayyorlash zarur.

Kasbiy tayyorgarlik metodikasida amaliyotning ahamiyati katta. Bo'lajak o'qituvchilarga

nafaqat dars o'tish, balki o'quvchilarga texnologik ko'nikmalarini o'rgatish, o'quv materialllarini samarali va interaktiv tarzda taqdim etish kabi amaliy ko'nikmalarini o'rgatish muhimdir. Amaliyat orqali o'qituvchilar o'z bilimlarini mustahkamlash va turli pedagogik vaziyatlarga moslashishni o'rganadilar.

Bugungi kunda o'qituvchilarning texnologik tayyorgarlik metodikasiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritish zarur. Bu texnologiyalarni qo'llash o'qituvchining bilim va ko'nikmalarini real va zamonaviy talablarga moslashtirishga yordam beradi. Shuningdek, bu o'qituvchilarga o'z darslarini samarali rejalshtirish, o'quvchilarni faol jalb qilish va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv jarayonini tahlil qilish va uni doimiy ravishda takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarni tajriba orttirishga yo'naltirish, ularning o'quvchilarga nisbatan pedagogik yondashuvlarini doimiy ravishda baholash va korrigirovka qilish zarur. Ta'linda texnologik innovatsiyalarni joriy etish o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish va ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida yangi metodikalarga moslashish zarurati bor. Yangi pedagogik texnologiyalar va metodlar bilan tanishish, o'z kasbiy bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish muhim. Shu bilan birga, pedagogik kadrlarning ta'lim olish jarayonini qayta ko'rib chiqish, uning natijalarini tahlil qilish va yangilash ham katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash metodikasi o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish, pedagogik va texnologik bilimlarini kengaytirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'qituvchilarni ta'lim tizimiga tayyorlash muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining doimiy rivojlanishi va o'zgaruvchan texnologik talablar bilan moslashuvi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi олий олий та'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" Farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>
2. "Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi roli." Abduqodirov, R. (2019). Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. "Zamonaviy ta'lim metodikalari." Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. Gulomova, N. (2020).